TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI VA "KAFIL-SUG'URTA" AKSIYADORLIK JAMIYATI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK

M E M O R A N D U M I

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (keyingi o'rinlarda - «Universitet») nomidan O'quv ishlari bo'yicha prorektor Abdullayev Nodir Abdulhayevich, "KAFIL-SUG'URTA" AJ (keyingi o'rinlarda -«Sug'urta kompaniyasi») nomidan Boshqaruv raisi o'rinbosari Djanturayev Umid Muxammadyusupovich O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son, "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son Qarori hamda "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturi ijrosini ta'minlash, shu bilan birga aholining moliyaviy va sug'urta savodxonligi darajasini oshirish orqali mamlakat aholisining o'z daromadini to'g'ri rejalashtirishi, moliyaviy xizmatlar va sug'urta mahsulotlarni to'g'ri baholashi, moliyaviy risklarni inobatga olgan holda sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, qabul qilingan qaror yoki tanlovi o'zi uchun yuqori darajadagi foydaliligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar amalga oshirish hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning innovatsion hamkorligini amalga oshirish asosida innovatsion-korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

I. HAMKORLIKNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "KAFIL-SUG'URTA" AJ bilan ta'lim, fan va ishlab chiqarishning innovatsion hamkorligini amalga oshirish asosida innovatsion-korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yish, O'zbekiston sug'urta bozoriga sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, malakali xodimlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish yuzasidan quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- innovatsion texnologiyalarni hayotga tatbiq etish, ilm-fan, fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida sug'urta sohasida ilm-fanning zamonaviy yutuqlarini joriy etish, tadqiqot markazlari, o'quv-ilmiy markazlarni bosqichma-bosqich tashkil etish orqali akademik fan bilan oliy ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish

hamda oliy ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion hamkorlikni amalga oshirish;

- iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish bo‘yicha qo‘shma loyihalar yaratish va ularni amalga oshirish hamda ularning natijalarini innovatsion asosda milliy iqtisodiy islohotlar amaliyotiga tatbiq etish, sug‘urta sohasining kelgusi istiqboldagi faoliyatini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratuvchi dolzarb muammoli mavzular bankini yaratish va ushbu mavzular bo‘yicha hamkorlikda tadqiqot olib borish, dolzarb muammoli mavzular bo‘yicha ilmiy ishlar tayyorlash va nashr etish, seminar va konferensiyalar tashkil etish, innovatsion mahsulotni yaratish va tatbiq etish bo‘yicha birgalikda faoliyat yuritish hamda innovatsion guruhlar shakllantirish, Sug‘urta kompaniyasida Universitet professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilarining stajirovkasini hamda bakalavriat va magistraturada tahsil olayotgan talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini samarali tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Sug‘urta kompaniyasining yetakchi xodimlarini o‘quv jarayoniga jalb etish.

Tomonlarning ko‘p qirrali hamkorligi uzoq muddatli sherikchilik, tenglik va samaradorlik, o‘zaro manfaatli memorandumlar tuzish tamoyillariga asoslanadi.

II. HAMKORLIKNI AMALGA OSHIRILISHI

Tomonlar mazkur memorandumning I bo‘limida nazarda tutilgan yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zaro axborot almashadilar, hamkorlik masalalari bo‘yicha ishchi uchrashuvlar o‘tkazadilar, hamda zaruriy maslahatlashuvlarni amalga oshiradilar.

Hamkorlikni samarali amalga oshirish maqsadida Tomonlar quyidagi amaliy ishlarni bajaradilar:

- fan va ishlab chiqarishning innovatsion hamkorligini amalga oshirish asosida innovatsion-korporativ hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda O‘zbekiston sug‘urta bozoriga sifatli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish, malakali xodimlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish maqsadida Universitetda moliyaviy va sug‘urta savodxonliginii oshirish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish, turli uchrashuvlar, konfrensiyalar tashkil etish orqali hamkorlik olib borish;
- Universitetda talaba yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularning bandligini ta‘minlash borasida turli ko‘rik tanlov va tadbirlar tashkil etishda hamkorlik olib borish va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash;
- hamkorlik yo‘nalishlaridan kelib chiqib Tomonlar kelishuviga asosan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Sug‘urta kompaniyasi va universitet ichki qonunchiliklariga zid bo‘lmagan hamkorlikni boshqa shakllarini amalga oshirish.

III. TOMONLARNING MAJBURIYaTLARI

3.1. Mazkur memarandum doirasida Universitet quyidagilar bo‘yicha amaliy ko‘mak ko‘rsatadi:

a) Sug‘urta kompaniyasining istiqboldagi faoliyatini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratuvchi dolzarb muammoli mavzular bankini aniqlash, shuningdek sug‘urta sohasiga oid ilmiy adabiyotlarni xorij tillariga tarjima qilish yuzasidan xo‘jalik kelishuvlari asosida hamkorlik qilish.

b) innovatsion mahsulotni yaratish va tatbiq etish bo‘yicha birgalikda faoliyat yuritish hamda muammoli mavzular bo‘yicha tadqiqot olib borish uchun innovatsion guruhlarni shakllantirish;

d) sug‘urta sohasining dolzarb muammoli mavzulari bo‘yicha doktorlik, magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlarini bajarish uchun mavzular ro‘yxatini yangilab borish;

e) Universitet magistrantlari, tadqiqotchilari va pedagog xodimlarini Sug‘urta kompaniyasiga stajirovkaga yuborish;

f) Sug‘urta kompaniyasiga iqtidorli talabalarni amaliyot o‘tash uchun yuborish;

g) Sug‘urta kompaniyasi bilan hamkorlikda oliy ta‘lim muassasalarining pedagog xodimlari, mustaqil-izlanuvchilari va talabalari ishtirokida qo‘shma seminarlar, anjumanlar, konferensiyalar, davra suhbatlarini tashkil etish;

h) Sug‘urta kompaniyasining ko‘p yillik tajribaga ega malakali mutaxassislarini talabalar tomonidan bajariladigan bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilish ishlariga jalb etish;

i) Sug‘urta kompaniyasining malakali mutaxassislarini Universitetning mutaxassislik kafedrasi faoliyatiga tanlov asosida ishga jalb etish.

3.2. Mazkur memorandum doirasida Sug‘urta kompaniyasi quyidagilar bo‘yicha amaliy ko‘mak ko‘rsatadi:

a) Sug‘urta kompaniyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dolzarb muammoli mavzularni Universitetga yetkazish va ushbu mavzular bo‘yicha pedagog xodimlarining tadqiqot olib borishlari, shuningdek sug‘urta sohasiga oid ilmiy adabiyotlarni xorij tillariga tarjima qilish yuzasidan xo‘jalik kelishuvlarini tuzishda hamkorlik qilish;

b) Sug‘urta kompaniyasida innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun Universitet pedagog xodimlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish va hamkorlikda innovatsion guruhlar shakllantirish;

d) Sug‘urta kompaniyasi tomonidan o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy seminar va treninglarga Universitet pedagog xodimlari va katta ilmiy xodim-izlanuvchilarini jalb etish;

e) Universitet pedagog xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilarining malaka oshirish va stajirovka o‘tashlari hamda talabalarga ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotni o‘tash uchun shart-sharoitlar yaratish;

f) Universitet pedagog xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va talabalariga darslik, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanma, ilmiy tadqiqot ishlari,

doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlarida foydalanish uchun ma‘lumotlarni taqdim etish;

g) Mazkur memorandum doirasida zaruriy hollarda Universitetga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish.

IV. MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMI

Mazkur memorandum Universitet va Sug‘urta kompaniyasiga pullik majburiyat yuklamaydi. Tomonlar mazkur memorandum doirasida o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini vijdonan, halol va o‘zaro ishonch asosida bajaradilar.

V. FORS-MAJOR HOLATLARI

5.1. Tomonlar mazkur memorandumdan kelib chiquvchi majburiyatlarni o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan fors-major holatlar sababli bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, memorandumdan kelib chiquvchi majburiyatlarni o‘tashdan ozod etiladilar.

5.2. Fors-major holatlarga oldindan ko‘rib va oldini olib bo‘lmaydigan yoki oldini olish mumkin bo‘lmagan, Tomonlarning xohish-irodalariga bog‘liq bo‘lmagan va shu bois Tomonlardan hech biriga majburiyatlarni o‘tashga imkon bermaydigan holatlar – yengib bo‘lmaydigan tabiat hodisalari (zilzila, to‘fon, ko‘chkilar va shu kabilar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal, davlat organlarining taqiqlovchi hujjatlari va shu kabilar) kiradi.

5.3. Yengib bo‘lmas kuchlar tufayli mazkur memorandum shartlarini bajarish imkoni bo‘lmaganda bir Tomon ikkinchi Tomonni ana shunday vaziyat yuz bergandan so‘ng 10 (o‘n) kun ichida dalillar keltirgan holda so‘zsiz xabardor qilishi shart.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

Ushbu memarandum qoidalarini talqin qilish, bajarish va qo‘llashda Tomonlar o‘rtasida vujudga keladigan har qanday kelishmovchilik va nizolar Tomonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida tinch yo‘l bilan hal etadilar.

VII. O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH

7.1. Mazkur memorandumga Tomonlar o‘zaro kelishuv asosida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan tarzda istalgan vaqtda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishga haqli.

7.3. Mazkur memorandumga qilingan barcha o‘zgartish va qo‘shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi va Tomonlarning imzolari bilan tasdiqlanishi lozim.

7.3. Mazkur memorandumga qilingan barcha ilovalar, qo‘shimchalar va o‘zgartishlar memorandumning tarkibiy qismi deb qaraladi.

VIII. MEMARONDUMNING KUCHGA KIRISHI, AMAL QILISHI VA O‘Z KUCHINI YO‘QOTISHI

8.1. Mazkur memorandum Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va besh (5) yil muddat davomida amal qiladi. Tomonlar kelishuvi o‘zgarmagan holda ushbu muddat keyingi besh (5) yil muddatga uzuytiriladi.

8.2. Mazkur memorandum Tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

8.3. Mazkur qoidalardan qat‘iy nazar Tomonlarning bir boshqa Tomonni ushbu memorandum amal qilishni tugatish to‘g‘risida bir (1) oy oldin yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

8.4. Mazkur memorandum teng yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi va har bir Tomon uchun bitta nusxa topshiriladi.

Memorandum Toshkent shahrida 2025 yil “____” _____ kuni ikki (2) asl nusxada davlat tilida tuzildi. Mazkur memarandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	**“KAFIL-SUG‘URTA” aksiyadorlik jamiyati**
100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi 20-uy Tel.: +998 (71) 233-34-24	100000,Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 59-uy Tel.: +998 (71) 200-04-14
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor N.A.Abdullayev	Boshqaruv raisi o‘rinbosari U.M.Djanturayev
_____	_____